
NAVBATDAGI SESSIYA BO'LIB O'TDI

Bugun xalq deputatlari Rishton tuman Kengashining navbatdagi 40-sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya ishida tuman sektorlari rahbarlari, tuman Kengashi deputatlari, tuman hokimi o'rinbosarlari, tumandagi korxonalar va tashkilot rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdilar. Sessiya avvalida «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasi talabiga asosan 6 - "A.Jomiy" saylov okrugidan saylangan tuman Kengashi deputati Asrorjon Hikmatov sessiyamiz kotibligiga saylandi. Kun tartibida quyidagi masala - Rishton tuman hokimining birini o'rinbosari, qishloq va mahallalarda mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining haqiqiy holatini baholashdan o'tkazish bo'yicha tuman ishchi guruh rahbari A.Mustafaqulovning tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Axboroti tingladi. Unga ko'ra, tumanimizdagi to'rtta - "Qalaynav", "Guliston", "Buloqboshi" va "Chek Jalaer" mahallalari og'ir hudud sifatida tanlab olingani ma'lum qilindi. Sessiya yakunida ko'rilgan masala yuzasidan deputatlar munosabat bildirishib tegishli qaror qabul qilindi.

2022-06-23 17:15:47